

«SHARQ-U G'ARB: NAVOIY VA GYOTE»

mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

Articles of international scientific-theoretical conference on

«EAST AND WEST: NAVOI AND GOETHE»



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE
FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY
DEPARTMENT OF «WORLD OF LITERATURE AND COMPARATIVE
LITERATURE STUDIES»

**«SHARQ-U G‘ARB:
NAVOIY VA GYOTE»**

*mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
2023-yil, 21-iyun*

Articles of international scientific-theoretical conference on

**«EAST AND WEST:
NAVAI AND GOETHE»**

June 21, 2023

Dilnavoz YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori, professor
(ToshDO‘TAU, O‘zbekiston)
mumtoza_dil@mail.ru

ALISHER NAVOIY «XAMSA»SI VA USMONLI TURK ADABIYOTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodi o‘z davridayoq ko‘plab qo‘shni mamlakatlarning e‘tibori va qiziqishiga sazovor bo‘lgani, jumladan, Usmonlilar saltanatida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiy merosiga qiziqish, muayyan asarlari ta‘sirida asar yaratish an‘anasi mavjud bo‘lganligi haqida mulohazalar yoritilgan. Maqolada Navoiy ijodining Usmonli turklar adabiyotiga ta‘siri shoir she‘riyatidan ta‘sirlanish, tazkirachilik yo‘nalishidagi ta‘sir, «Xamsa» dostonlariga javob yozish kabi 3 yo‘nalishda kuzatish mumkinligi va uchinchi yo‘nalish, ya‘ni Navoiy «Xamsa»sining Usmonli turklar xamsanavisligiga ta‘siri bilan bog‘liq ayrim masalalar ko‘rib chiqilgan.

Maqolada keltirilishicha, turkiy adabiyotdagi xamsanavislikka munosabat ko‘p jihatlar bilan forsiy adabiyotni eslatadi. Xususan, Alisher Navoiy beshligi yaratilgandan keyin oradan yarim asr vaqt o‘tmay, xamsanavislik an‘anasidan uzoqlashish hollari uchray boshlaydi, bu xususiyat, ayniqsa, usmonli turklar adabiy muhiti uchun xos ekanligi bilan xarakterlanadi. Navoiy forsiyzabon shoirlarga turkiy tilda «Xamsa» yozish mumkinligini isbotlab bergan va murakkab adabiy vazifani ado etib bo‘lgandan keyin, turk dunyosi endi bemalol an‘anaviylikdan chekinib, o‘zi istagan shaklda beshlik yaratish imkoniga ega bo‘lgani maqolada o‘z isbotini topgan.

Kalit so‘zlar: xamsanavislik, chig‘atoycha she‘r, 3 yo‘nalish, adabiy ta‘sir, basmala.

Abstract. This article deals with the work of Alisher Navoi, which attracted the attention and interest of many neighboring countries, including the Ottoman Empire. In the article, the influence of Navoi’s creativity on the literature of the Ottoman Turks can be traced in 3 directions: the influence of the poet’s poetry, influence in the direction of tazkire, writing a response to the epic «Khamsa», some issues related to the influence of the Ottoman Turks on the khamsa-writing are considered.

According to the article, the attitude towards khamsa-writing in Turkish literature is in many ways similar to Persian literature. In particular, less than half a century after the creation of the Khamsa of Alisher Navoi, cases of departure from the hamsanavi tradition begin to occur, which is characterized by the fact that it is especially characteristic of the literary environment of the Ottoman Turks. Navoi proved to the Persian-speaking poets that it was possible to write «Khamsa" in Turkish, and after completing the difficult literary task, the Turkic world now has the opportunity to easily depart from traditionalism and create a five in the form it wants.

Keywords: Khamsa-writing, Chigatai poetry, 3 directions, literary influence, basmala.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodi o‘z davridayoq ko‘plab qo‘shni mamlakatlarning e‘tibori va qiziqishiga sazovor bo‘lgan edi. Jumladan, Usmonli turklar saltanatida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiy merosiga qiziqish, uning

she'rlariga tatabbu' bitish, muayyan asarlari ta'sirida asar yaratish an'anasi mavjud edi. Ushbu ta'sirini uch yo'nalishda kuzatish mumkin: 1) shoir she'riyatidan ta'sirlanish; 2) tazkirachilik yo'nalishidagi ta'sir; 3) «Xamsa» dostonlariga javob yozish. Biz ushbu tadqiqotimizda uchinchi yo'nalish, ya'ni Navoiy «Xamsa»sining Usmonli turklar xamsanavisligiga ta'siri bilan bog'liq ayrim masalalarni ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, musulmon Sharqi dostonchiligi tarixini xamsanavislik an'anasidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. XIII asr boshlarida Nizomiy Ganjaviy beshligi orqali vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida o'zining yuzlab javob dostonlariga ega bo'ldi [Aliyev, 1985].

Fors-tojik adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijodkor Xusrav Dehlaviy bo'lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Garchi turkiy adabiyotda Navoiygacha «Xamsa»ning muayyan dostoniga javob yozilgan bo'lsa-da (Ahmadiy. «Iskandarnoma» (XIV asr), Qutb. «Xisrav va Shirin» (XV asr), Haydar Xorazmiy. «Maxzan ul-asror» (XV asr), Sayyid Qosimiy. «Majma' ul-axbor» (XV asr), lekin to'liq beshlik yaratilmagan edi.

Adabiyotshunoslikda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Usmonli turklar adabiyotida XVI–XVII asrlarda «Xamsa» nomi ostida masnaviy yozgan shoirlarning soni o'n oltitaga yetadi [Levend, Arasli]. Lekin ularning hammasi ham o'z asarlarini mukammal beshlik holiga keltirishmagan yoki nomi ma'lum bo'lgan asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Onado'lida masnaviy yozish va fors shoiri Nizomiydan ilhom olish Navoiydan ancha avval boshlangan bo'lsa-da, ko'pgina shoirlarga masnaviy majmuasini yozishlariga usmoniy imperiyasida ko'p o'qilgan Navoiyning «Xamsa»si turtki bo'lgan, degan ehtimol ko'proq. Levend Turkiya kutubxonalarida Navoiy «Xamsa»sining o'n bitta to'liq (ikkitasi kulliyotlar tarkibida), hamda dostonlardan biri yoki birdan ortig'i bor bo'lgan yana yettita qo'lyozma mavjudligini qayd etgan [Levend, 1958:132, 143, 186-196].

Xamsashunoslikda Usmonli turklar adabiyotida beshlik yaratgan shoirlar sifatida quyidagilar eslanadi:

Hamdiy, Behishtiy, Yahyobey Toshlijali, Nav'izoda Atoyi, Fayziy, Subhizoda Fayzulloh, Chokariy, Ahmad Rizvon, Hojatiy, Jaliliy, Muidiy, Fathulloh Orif Chalabiy, Fazliy, Lome'iy va b. Bu davr adabiy muhitida ilk «Xamsa»ni kim yaratgani ma'lum emas. Ogoh Shirri Levendning ma'lumot berishicha, Ahmad Sinon Behishtiy va Hamdulloh Hamdiy bir-birlaridan xabarsiz birinchilikka da'vo qilganlar. Xususan, Behishtiy yozadi:

*Yazdim hele ben cevabi hemse
Dimedi dahi bu dilde kimse.*

Mazmuni: Mana men Xamsaga javob yozdim, bu tilda (ya'ni Onado'li turkchasida) mendan avval hech kimsa yozmagan edi.

Manbalarda keltirilishicha, Behishtiy Sulton Boyazid II davrida mahalliy amaldorlardan biri bo'lgan. Sulton bilan ixtilofga borgach, Usmoniyalar saltanatidan qochib, Hirotga ketadi va Alisher Navoiy homiyligida ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Shu yerda u o'zining «Xamsa» asarini yozganligi haqida ma'lumotlar bor [Aliyev: 1985,82]. Behishtiy «Xamsa»si quyidagi dostonlarni o'z ichiga oladi: «Yusuf va Zulayho», «Vomiy va Uzro», «Husn va Nigor», «Suhayl va Navbahor», «Layli va Majnun». Garchi bu dostonlarning barchasi ham nomlanishi va umumiy mazmun-mohiyati bilan an'anaviy «Xamsa»ga javob bo'lmas-da, lekin turk dunyosida forsiy adabiyotda vujudga kelgan an'anaga ko'ra, beshlik sifatida e'tirof etilgan.

Shu o'rinda xamsanavislik tarixiga bir oz nazar tashlashimizga to'g'ri keladi. Ma'lumki, forsiy adabiyotda Nizomiy Ganjaviy beshligiga ilk marta javob yozgan shoir Xusrav Dehlaviy bo'lsa, Alisher Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Boshqacha aytganda, Dehlaviy ham, Navoiy ham xamsanavislikka munosabat bildirayotgan birinchi ijodkorlar edi. Shu jihatdan bu ikki ijodkor «buyuk Nizomiy bilan adabiy muhozasaga kirishish jarayonidagi murakkab vazifa»ni [Aliyev, 1985:57] amalga oshirishda bir xil pozitsiyada turganlar deb aytish mumkin. Shu ma'noda bu ikki ijodkor beshligida xamsanavislikning barcha shartlariga qat'iy amal qilinganlikni ko'ramiz.

Forsiy adabiyotda Dehlaviydan keyin an'ananing buzilish hollari uchray boshlaydi. Xususan, XIV asrning forsiy adibi Hoju Kirmoniy (ba'zi manbalarda Hoju Himmatiy)ning 1332-1345-yillar oralig'ida yaratilgan beshligi ko'p jihatlari bilan Nizomiy beshligidan farq qiladi. Kirmoniy «Xamsa»si «Humoy va Humoyun», «Gul va Navro'z», «Ravzat ul-anvor», «Kamolnoma» va «Gavharnoma» kabi dostonlardan iborat bo'lib, dostonlarning nomlanishiyoq an'anaga munosabatdagi o'zgachalikni ko'rsatyapti.

Xamsachilik tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Abdurahmon Jomiy beshligida esa falsafiy yo'nalishdagi dostonlar yetakchi o'rinda turishi bilan xarakterlanadi. Uning xamsasi «Tuhfat ul-ahror», «Subhat ul-abror», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun» hamda «Xiradnomai Iskandariy» dostonlaridan iborat bo'lib, Jomiy hatto Iskandar voqeasi bilan bog'liq «Xiradnomai Iskandariy» dostonida ham asosiy e'tiborni Iskandarning yurishlariga emas, balki uning donishmandligiga qaratadi, buni asar nomlanishi ham tasdiqlab turibdi.

Turkiy adabiyotdagi xamsanavislikka munosabat ham ko'p jihatlari bilan forsiy adabiyotni eslatadi. Alisher Navoiy beshligi yaratilgandan keyin oradan yarim asr vaqt o'tmay, xamsanavislik an'anasidan uzoqlashish hollari uchray boshladi. Bu xususiyat, ayniqsa, usmonli turklar adabiy muhiti uchun xos ekanligi

bilan xarakterlanadi. «Qayd etmoq lozimdirki, turk adabiyotida «Xamsa» yozmoq an'anasi birmuncha farqli inkishof etdi va turk shoirlari o'z «Xamsa»laridagi dostonlar mavzularining o'zgachaligi bilan Nizomiydan farqlandilar» [Arasly, 1980: 80]. Demak, aytish mumkinki, Navoiy forsiyzabon shoirlarga turkiy tilda «Xamsa» yozish mumkinligini isbotlab bergan va murakkab adabiy vazifani ado etib bo'lgandan keyin, turk dunyosi endi bemalol an'naviylikdan chekinib, o'zi istagan shaklda beshlik yaratish imkoniga ega bo'ldi. Shu ma'noda Onado'lida yaratilgan ilk xamsalar mavzu va syujet yo'nalishiga ko'ra, ko'p hollarda Nizomiy beshligidan farq qiladi. Umuman, bu davrdagi xamsalar va ular tarkibidagi dostonlarni ta'sirlanish darajasiga ko'ra 4 guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Nizomiy dostonlariga javoban yozilgan dostonlar
- 2) Abdurahmon Jomiy ta'sirida yaratilgan dostonlar
- 3) Alisher Navoiy dostonlari ta'sirida vujudga kelgan masnaviylar
- 4) Abdulloh Hotifiy ta'sirida yozilgan dostonlar.

Qizig'i shundaki, ayrim xamsalar bir necha ijodkor ta'sirida yaratilganligi kuzatiladi. Masalan, Bursalik Lome'iyning «Haft paykar» dostoni Hotifiyning «Haft manzari»ga javoban yozilgan bo'lsa, «Farhod va Shirin» dostoni bevosita Alisher Navoiy ta'sirida yozilgan.

Bu davr adabiyotining yana bir yirik vakili Yahyobey Toshlijalining xamsanavislikka munosabati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning beshligi 1550–1551 yillar oralig'ida yaratilgan bo'lib, «Gulshan ul-anvor», «Ganjinai roz», «Yusuf va Zulayho», «Shoh va gado» va «Usulnoma» dostonlaridan iborat. Adabiyotshunoslikda Toshlijalining «Gulshan ul-asror», «Ganjinai roz» va «Usulnoma» dostonlarining har uchulasi ham Nizomiy «Maxzan ul-asror»ga javob tarzida vujudga kelgan degan qarash bor [Arasli, 1980: 91]. Lekin uning «Gulshan ul-anvor»i ko'p jihatlari bilan Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonini eslatadi. Har ikki doston muqaddimasini qiyoslashning o'ziyoq shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Ma'lumki, Nizomiydan boshlab «Xamsa»ni «bismilloh» oyati bilan boshlash an'ana tusiga kirgan bo'lib, Nizomiydan so'ng barcha xamsanavislar o'z so'zlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylandi, ya'ni ushbu bob to'lig'icha «bismilloh» oyati asosida qurildi. Toshlijali dostonida esa Navoiy boshlab bergan bu usul yanada rivojlantirilib, dostonning dastlabki uch bobi «basmala»ga bag'ishlangan, boshqacha aytganda, unda «bismilloh» oyatining kitobat san'ati asosidagi talqini 3 ta bobda alohida-alohida davom etadi.

Dostondagi birgina «sin» harfi bilan bog'liq talqinga e'tibor qaratsak. Navoiyda:

*«Sin»i salomat yo'lining ziynasi,
Balki saodat yuzi oyinasi.*

Toshlijalida:

Bāsı beḳā ālemi ser-defteri

Şıni selāmet ilinüñ serveri

Navoiy dostonlari ta'sirida qalam tebratgan yana bir turk shoiri Bursali Leme'iy Usmon Chalabiydir. E.Birnbaum uning bobosi naqqosh bo'lib, o'z davrida Temur tarafidan Samarqandga olib ketilgan va keyinroq yurtiga qaytarilgan. U nevarasini chig'atoycha yozishga ilhomlantirgani haqida ma'lumot beradi. Lome'iyning ko'plab she'rlari Navoiy ta'sirida yozilgan. Uning 1512-yilda yozilgan «Farhod va Shirin» dostoni ham buyuk o'zbek shoirining shu nomli asari ta'sirida maydonga kelgan. Asarning muqaddimasida Lome'iy Bursa hokimi Fanoriy unga Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonini onado'li turkchasiga uyg'unlashtirishni taklif qilgani haqida yozadi.

Kalem berki külü nesrine çektim

Rakam Ferhad ile Şirine çektim.

Eğerçi gissai yetmekta temdid,

Seraser eyledim ustada taklid.

Muradında kim etdim husni ta'bir

Kahi kesterdum uslubında tağyir.

Dostonning nomlanishidan tortib, voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri va yana ko'p o'rinlarda Navoiy dostonidan ta'sirlanish ko'zga tashlanadi.

Bu davr adabiy muhitining yana bir vakillaridan biri bo'lmish Lorendeli Hamdiyning «Layli va Majnun» dostoni 1499-yilda yozilgan bo'lib, undagi ayrim o'rinlar ham Navoiy dostoni ta'sirida yozilganligini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Usmoniylar saltanatida Alisher Navoiy she'rlariga havasmandlik muhit shoirlarini dastlab chig'atoycha she'r yozishga, keyinroq «Xamsa»ning muayyan dostonlariga javob yozishga undadi. Alisher Navoiy turkiy tilda «Xamsa»dek buyuk asarni yozish mumkinligini isbotlab bergach, turk dunyosida Nizomiy beshligiga javob yozish istagi paydo bo'ldi. Yahyobey Toshlijali, Lome'iy Chalabiy, Lorendeli Hamdiy va yana ko'plab shoirlar Alisher Navoiy beshligi ta'sirida masnaviy-dostonlar yaratdilar.

Adabiyotlar:

1. Aliyev G. Temi i syujeti Nizami v literaturax narodov Vostoka. – M.: Nauka, 1985.
2. Arasli N. Nizami va turk edabyati. – Baki: Elm, 1980.
3. Afsaxzod A. Lirikha Abd Ar-Raxmana Djami. – M.: Nauka, 1988.
4. Bertels Y.E. Nizami i Fizuli. – M.: Nauka, 1962.

5. Kleinmichel S. Ali Şir Nevâyî ve Osmanlı Şairleri (Çeviren Nurettin Demir) // Türk Edebiyatı Tarihi I (Ed. T.S.Halman, Osman Horata ve diğerleri). – İstanbul: T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları Kültür Eserleri Dizisi: 399, 2006.
6. Levend A.S. Divan edebiyati. – İstanbul, 1984.
7. Levend A.S. Arab, fors ve türk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayesi. – Ankara, 1959.
8. Saber B. Leylâ İle Mecnûn Mesnevisinin Arap, Fars Ve Türk Edebiyatı’nda Ele Alınış Biçimi ve Larendeli Hamdî’nin Eseri. Doktora Tezi. – İstanbul, 2004.
9. Sağlam A. Taşlıcalı Yahya Bey ve Hemsesi. Doctora Tezi. – 2016.
10. Erkinov A. Navoiy ijodining xorijlik tadqiqotchilari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2019, 2-son.
11. Yusupova D. Alisher Navoiy «Xamsa»sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.
12. Yusupova D. «Xamsa» poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi. – Toshkent: Tamaddun, 2021.

MUNDARIJA

	ШУХРАТ СИРОЖИДДИНОВ	БАШАРИЙ ТАФАККУРНИНГ ИККИ ЧЎҚҚИСИ: НАВОИЙ ВА ГЁТЕ	4
1-ШЎЪБА.			
НАВОИЙ ВА ГЁТЕ: ЭСТЕТИКА, ПОЭТИКА, ТИПОЛОГИЯ			
1.	УЗОҚ ЖЎРАҚУЛОВ	ЭЗОТЕРИК ТАФАККУР УНИВЕРСАЛИЯСИ: НАВОИЙ, ШЕКСПИР, ГЁТЕ	8
2.	АКМАЛ САИДОВ	ГЁТЕ – ҒАРБУ ШАРҚ ҚУЁШИ	31
3.	ALMAZ ÜLVİ BİNNATOVA, RUHŞANƏ VASİYEVA	ƏLİŞİR NƏVAİNİN YARADILIĞINDA İSGƏNDƏR OBRAZI	49
4.	СУВОН МЕЛИ	«ФАУСТ» ТРАГЕДИЯСИ ТАРЖИМАСИДА «АНАЛХАҚ» ИСТИЛОҲИ	61
5.	ODINAXON JAMOLDINOVA, GULBAHOR KINJAYEVA	SHARQ VA G‘ARB TARANNUMI BUYUK SIYMOLAR NAZDIDA	66
6.	Colin DÜRKOP	GRUSSWORTE ZUR KONFERENZ "OSTEN UND WESTEN: GOETHE UND NAWOI"	70
7.	РАҚЫМЖАН ТҮРЫСБЕК	ӘДЕБИ БАЙЛАНЫС ПЕН РУХАНИ САБАҚТАСТЫҚ	72
8.	İSA HƏBİVBƏYLİ	ƏDƏBİYYATDAN – ƏVƏDİYYƏTƏ	82
9.	MÜNEVVER TEKCAN	A HANDBOOK FOR TEACHING THE RIGHT THOUGHTS AND IDEAS: BABUR-NAMA AS A NASIHAT-NAMA	90
10.	NURBOY JABBOROV	ALISHER NAVOIY VA SHARQ ISLOM ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI	96
11.	NAFASXON SHODMONOV	ВЕВАНО НІКМАТ ДУРИ	106
12.	ХУРРАМ РАХИМОВ	ГЁТЕ ИБРАТЛАРИ ВА ФАУСТ САБОҚЛАРИ	111
13.	ГУЛНОЗ ХАЛЛИЕВА	«ТҮРКИЙ ЭТЮДЛАР»ДА ШАРҚ АДАБИЁТИ	117
14.	МАҚСУД АСАДОВ	НАВОИЙ ҚИТЪАЛАРИ: ОБРАЗ, МАЪНО ВА ТАСВИРДАГИ ЯНГИЛАНИШЛАР	122
15.	ЖАНБОТА КАРИПБАЕВ	ӘЛЕМ ӘДЕБИ КЕҢІНДЕГІ МІР ӘЛШПЕР НАУАИ МҮРАСЫНЫҢ ТАНЫЛУЫ ЖӘНЕ ҚАЗАҚ ӘДЕБИЕТІНЕ ЖАСАҒАН БЫҚПАЛЫ	131
16.	IQBOLOY ADIZOVA	«MAJOLIS UN-NAFOIS»DA YODGA OLINGAN UCH SHOIRA	137
17.	DILNAVOZ YUSUPOVA	ALISHER NAVOIY «XAMSA»SI VA USMONLI TURK ADABIYOTI	143
18.	ŞƏVNƏM VABAYEVA	ƏLİŞİR NƏVAİ ŞƏXSİYYƏTİ VƏ ONUN TƏZKİRƏ YARADICILIĞI	149
19.	G‘AYRAT MURODOV	UYG‘UN TAFAKKUR QUTBLARI	157
20.	АЛЬБИНА РАХМАНОВА	ГЁТЕ И МИР ВОСТОКА	162
21.	ДАРМОНОЙ ҰРАЕВА	АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ГЁТЕ ИЖОДИДА ХОТАМ ОБРАЗИ	167
22.	ШОИРА АХМЕДОВА	ШЕЪРШУНОС ГЁТЕ	171
23.	УСМОН ҚОБИЛОВ	НАВОИЙ «ҒАРОЙИБ УС-СИҒАР»ИДА ЮСУФ ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ	177